



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCE.UZ

30 APRIL
№27

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
6-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-6**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-6**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖУРНАЛИСТИКА

1. Husanov Ulfatbek Bahodirovich, Xurramov Shoxjahon Ilhom o'g'li	
JURNALISTIKA O'ZI NIMA? JURNALISTIKANING RESPUBLIKAMIZDAGI	
HUQUQIY ASOSI	7
2. Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi	
JURNALISTIKANING BADIY - PUBLISISTIK JANRLARI	10
3. To'rabyoyeva Mohinur Akramjon qizi	
JOURNALISM; JOURNALISM AND THE ERA: AN AREA WHERE BOTH	
ATTENTION AND DEMAND ARE RISING.....	11
4. Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi	
OAV – DAVLAT VA JAMIYAT O'RRTASIDAGI MUVOZANATNI SAQLASH	
VOSITASI.....	13
5. Palvanova Zevarjon Baltabayevna, Palvanova Mehriban Baltabayevna	
ABDULLA QAHHORNING MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARI.....	15



ЖУРНАЛИСТИКА

JURNALISTIKA O'ZI NIMA? JURNALISTIKANING RESPUBLIKAMIZDAGI HUQUQIY ASOSI.

Husanov Ulfatbek Bahodirovich,
Xurramov Shoxjahon Ilhom o'g'li
Samarqand viloyat yuridik
texnikumi Talabalari
Telefon:+998993102939
yurist@mail.bek.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada jurnalista haqida teran fikr yuritilgan bo'lib, ushbu sohaning bugungi kundagi huquqiy asosi va moliyaviy boshqaruv jihatlari har tomonlama aniq bayon etilgan. Maqolada jurnalistikani bugungi kundagi ahamiyati va faoliyati kelgusidagi istiqbollari haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Jurnalistika, OAV, matbuot, radio,jurnalist, televide niye, axborot, media, xalqaro jurnalistika.

Abstract: In this article, a thoughtful idea of journalism is made, and the legal basis and financial management aspects of this field are explained in every way. The article also talks about the importance of journalism today and its future prospects for its activities.

Keywords: Journalism, Media, Press, radio,jurnalist, television, Information, media, International Journalism.

Аннотация: В этой статье подробно рассказывается о журналистике, подробно описываются правовые основы и аспекты финансового менеджмента в этой области на сегодняшний день. В статье также говорится о значении журналистики на сегодняшний день и дальнейших перспективах ее деятельности.

Ключевые слова: журналистика, СМИ, пресса, радио, журналистика, телевидение, новости, медиа, международная журналистика

Jurnalistika - ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televide niye, axborot agentliklari va boshqalar.) orqali tarqatish bilan shug'ullanadi. Jurnalistikaning ommaviy targ'ibot va tashviqot shakllaridan biri. Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog'liq. Jurnalistika atamasi dastlab jurnallar majmuiga, keyinchalik barcha davriy nashrlarga nisbatan qo'llanilgan. Endilikda jurnalistika iborasi jurnalist faoliyati mahsulini, shu bilan bog'liq kasblar majmuini, shuningdek, shu sohaga oid ta'limni va fan tarmog'ini ham anglatadi. Jurnalistika faoliyati tarkibiga matbuot, radio, televide niye, axborot agentliklari, hujjatli kino va boshqalar kiradi.

Janr tushunchasi barcha davrlarda ham odamlarning axborotga qiziqishlari, uni qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj, munosabatlariga qarab yuzaga keldi va rivojlandi. U jurnalistika paydo bo'lgandan beri o'z davriga qarab rivojlanadigan, ijtimoiy jarayonlar ta'sirida o'zgarib boradigan tarixiy kategoriyadir. Buni Sankt-Peterburg universiteti professori G.Korkonenko shunday izohlaydi: "Ishbilarmonalarning o'zaro munosabatlari gazeta sahifalarida "hisobot" janrini paydo qildi. Sir tutishga bo'lgan ehtiyoj tufayli xat janri yuzaga keldi.



Шу тариқа барча жанrlar tarixan oddiylikdan murakkablikka, oddiy xabardan tortib tahliliy maqolagacha rivojlana bordi."

Axborotni to'plash, taxlil qilish va tarqatishga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatning dastlabki kurtaklari qadim-qadimda paydo bo'lgan. Odamlarni ijtimoiy turmushda sodir bo'layotgan voqealardan xabardor qilish, ularga axborot vositasida ma'lum g'oyaviy-ruhiy ta'sir o'tkazish turli shakl va usullarda namoyon bo'lgan. Og'zaki axborot notiqlar, jarchilar tomonidan yetkazilgan. Yozma ma'lumotlar esa, maye, Qadimgi Misrda papiruslarga bitilib, tarqatilgan. Qadimgi. Rimda e'lonlardan, qo'lyozmalardan foydalanilgan.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, respublika Jurnalistikasi demokratik bosqichga qadam qo'ydi va jamiyatni demokratik tarzda yangilash, huquqiy demokratik davlat barpo qilishga ko'maklashayotgan yangi tizim shakllana boshladi. 1997 – yilda "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 – yil. 26 – fevralida "Jurnalist kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ti-zimini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori e'lon qilindi. Mazkur hujjatlar respublikamizda jurnalist kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda dunyo andozalari darajasiga ko'tarish yo'lida g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Shundan beri o'tgan vakt mobaynida bu qonunlar va qarorni amalga oshirish yo'lida ancha ishlar qilindi. Istiklol tufayli respublika jurnalistlarining ijtimoiy hayat voqeasi va hodisalarini taxlil qilish va yoritishga yondashuvi ham tubdan o'zgardi. Endiliqsa jurnalistlar ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish va yoritishda ilmiy bilimlarga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, xalqaro hamjamiyat e'tirof etgan umumdemokratik qoidalarga tayanmoqda.

Jurnalistika tizimining shakllanish jarayonida respublikada jurnalist ixtisosи bo'yicha maxsus oliy ta'limga ham asos solindi. 1949 - yili O'rta Osiyo davlat universiteti (hoz. O'zMO') ning filologiya fakulteti qoshida oliy ma'lumotli jurnalistlar tayyorlaydigan maxsus bo'lim tashkil qilindi. Bu bo'lim 1967 – yilda mustaqil fakultetga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan (1996 y. 26 aprel) "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni ta'sis etildi. Oliy ma'lumotli jurnalistlar O'zMUдан tashqari, Nukus davlat universitetida, shuningdek, O'zbekiston jahon tillari universitetida ham tayyorlanadi. 1997 – yildan O'zR Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida jurnalistlarni qayta tayyorlash Xalqaro ijtimoiy markazi faoliyat ko'rsatadi.



Beruniy Alimov o'z maqolalarining birida shunday fikrlarni bildirgan edi. "XX asrning 90-yillarida istiqlolga erishgan davlatlar mustaqil taraqqiyot yo'lini yaratish

bilan bir vaqtida tobora avj nuqtasiga ko'tarilayotgan globallashuv jarayonlari talablariga moslashishga majbur edilar. Globallashuv hodisasiga shu qadar ko'p ta'rif berilganki, ular qanchalik xilma-xil bo'lmasin, barchasida bir katta haqiqat – globallashuv – umumlashuv, yaxlitlashuv, o'zaro aloqadorlik va hamkorlik ekanligi u yoki bu ko'rinishda, shakl-shamoyilda ta'kidlanadi, takrorlanadi. Yana bir haqiqat – globallashuv, keng ma'noda olib qaralganda, ko'proq axborot globallashuvida o'z ifodasini topmoqda.

Bunday holat jahon media makonida axborot va umuman ommaviy axborot vositalari tushunchasini o'zgartirib yubordi. Vujudga kelgan "Yangi jahon axborot tartibi" har qanday davlat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Qolaversa, ushbu holatga moslashish mustaqil davlatning xalqaro imiji shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb eta boshladи.

Shunday ekan, xalqaro jurnalistika nima? Jahon media makoni qanday tushuniladi? Ulardagi yo'nalishlar, manfaatlar, qonuniyatlar nimalardan kelib chiqadi? Global axboriy qarama-qarshiliklar hamda g'oyaviy-siyosiy texnologiyalarning ta'siri mamlakatimiz jurnalislari oldiga qanday talab va vazifalarni qo'ymoqda? Xalqaro jurnalistika dunyosiga O'zbekistonning integratsiyasi jurnalislari oldiga qanday yangidan-yangi talablarni qo'ymoqda? Bu kabi savollarga ham nazariy, ham amaliy nuqtai nazarlardan javob topa bilish jamiyatning, davlatning zamonaviyligidan, zamon talablari darajasida taraqqiy topayotganligidan, pirovardida esa xalq va davlat imiji nechog'li mukammal yaratilayotganligidan dalolat beruvchi mezon bo'lib qolmoqda."

Shunday ekan, haqiqatan ham jurnalistika qadrli va qimmatli sohadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.
2. "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi qonun.
3. Jurnalistika asoslari. Darslik. T.M.Qozoqboyev. Toshkent- 2009
4. Jurnalistika. Darslik. M.Xudoyqulov
5. ZiyoNet ijtimoiy tarmog'i.



JURNALISTIKANING BADIY - PUBLISISTIK JANRLARI

Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi

Andijon viloyati, Ulug'nor tumani
O'sh Davlat Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada jurnalistik mahoratining eng yuqori cho'qqisi, deya e'tirof etilgan janrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ocherk, feleton, pamflet, parodiya, satirik sharh, afsona, latifa, xazil va boshqalar.

Badiy-publisistik janrlariga oid jurnalistik asarlar, avvalo, tilga katta e'tibor berilishi badiy obrazilik, matnlarning xis-xayajonga yo'g'irilganligi, muallifning voqelikni, umumlashtirishga intilishi jihatlari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu janrda ijod qilish sa'nati jurnalistlik mahoratining yuqori cho'qqisi, deya e'tirof etiladi. Bu janrning o'ndan ortiq turi mavjud; ocherk, feleton, pamflet, parodiya, satirik sharh, afsona, latifa, xazil va boshqalar shular jumlasidandir. Ayrim nazariyotchilar epigraf, turmush chorraxalarida, o'yin va epitaniyani xam shu turkumga qo'shishadi. Keyingi paytlarda esa jurnalistlar orasida luqma atamasi iste'molga kirib keldi. Quyida amaliy jurnalistikada ko'p qo'llanadigan ayrim janrlar haqida fikr yuritiladi.

Ocherk

Ocherk tushunchasining muayyan jurnalistik bitiklar nomi sifatida kelib chiqishi aniq emas. Uning paydo bo'lishi rus yozuvchusini A.M.Gorkiyning aloqasi bor, degan fikr ham mavjud. U hamkasblaridan biriga yozgan xatida ma'lum adabiy shakldagi matnning ocherk, deya atalishiga rus tilidagi <<очерчивать>> (o'zbekchada atrofga chiziq tortmoq, tasvirlamoq) fe'li asos bo'lishi xaqida yozdan edi. Ocherk nafaqat badiy-publisistik, balki jurnalistika barcha janrlarining "qiroli" hisoblanadi. Uni yozish uchun jurnalistdan katta mahorat va tayyorgarlik talab etiladi. Ocherkning mohiyati shundaki, unda reportaj (aniq-obrazilik) va taqiqot (tahliliy) muqaddimasi uyg'unlashadi.

Feleton

Bu, fransuzcha "feuille" so'zidan kelibchiqqan bo'lib, o'zbekchada "varaq, varaqa" ma'nosini beradi. "Журнал де Деба" gazetasining 1800-yil, 28-yanvardagi soniga ilova tarzida chiqarilgan qo'shimcha varaqa shunday nomlangan edi. Keyinchalik gazetaning quyi qismi (gazetachilar tili bilan aytganda, podval) da berilgan materiallarga "Фелеътон" rukni qo'yilgan. Sahifaning quyi qismida, gazetaning boshqa qismlaridan quyuq chiziq bilan ajratilib, joylashtirilgan mazkur materiallarning bu janrga umuman aloqasi bo'lмаган. Keyinchalik feleton tushunchasi muayyan bir matnga nisbatan qo'llanadigan bo'ldi. Feleton biror salbiy xodisa yoki voqeа, fel-atvor, xarakat ustidan kulish vositasidir. Ana shu jihatdan u jurnalistikaning eng ta'sirchan janrlaridan sanaladi.

Pamflet

Yunonchadagi "pamm fhlego" so'zi o'zbek tilida "xamma narsani yondiraman" yoki "hamma narsani kul qilaman", degan ma'nolarni beradi. Bu tushuncha afsonaviy asosga ega bo'lib, Olimp xudolarining, avvalo, ularning boshlig'i, o'z chaqmoqlari bilan dushmanlarini mavh etgan Zevs-chaqmoqtutar g'azabi to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq. Uning janr sifatida kelib chiqishini taqiqotchilar qadimgi yunon masalchisi Ezop ijodi bilan bog'laydilar.

Lugma

Avvalo, shuni aytish joizki, luqma so'zining lug'aviy ma'nosи "bir yutum ovqat", "bir kishi gapirayotganda, boshqa birovning gap tashlashi"ni bildiradi. Biz esa bu atamani uchinchi-eslatib qo'yish, bildirish, xatoni ko'rsatish ma'nosida qo'llamoqchimiz. Ayni shu jihatdan luqma atamasining jurnalistikaga kirib kelishi yangilikdir. Xali nazariy tomondan u janr sifatida qabul qilinmasada, o'zbek adabiyotida "Luqma" rukni ostida berilayotgan tanqidiy maqolalar ko'plab qilayotgan, so'zlayotgan kishining xatosini luqma tashlab, yuzatish, degan ibora mavjud. Jurnalist o'z ko'zi bilan ko'rghanlarini shundayicha qog'ozga tushiradi, unda kinoya piching, iste'zo bo'lishi mumkin. Ammo, ular bevosita guvohi bo'lingan xodisa xususiyatidan kelib chiqishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Najmiddin Ikromiy, «Boshlovchi jurnalist va mahorat mashaqqati», «Namangan nashriyoti», 2013-yil.
2. Najmiddin Ikromiy, «Amaliy Jurnalistika va mahorat», "Xayot" nashriyoti «Andijon», 2016-yil,
3. Shuhrat Rizayev, «Iztirob san'ati», Toshkent, «Yangi asr avlodи», 2013-yil.



JOURNALISM; JOURNALISM AND THE ERA: AN AREA WHERE BOTH ATTENTION AND DEMAND ARE RISING

To'raboyeva Mohinur Akramjon qizi

Tashkent Pharmaceutical Institute ,Tashkent ,Uzbekistan

Faculty of Industrial Pharmacy ; Metrology,
standardization, product quality and management direction

Тел:+998909817196

e-mail:turobiddinovamohigul1996@gmail.com

Annotation: it is important to convert quantitative indicators into qualitative indicators in each area. Today's developments in the field of journalism are also sharpening the knowledge and skills of the owners of the pen, and new, young, courageous professionals are entering the big creative field. In turn, our people and the interests of journalism benefit from this. All this is due to the growing interest and demand in this area.

Keywords: journalism, hard bread, non-governmental organizations, Navoi Territorial Electric Networks, correspondent

When it comes to journalism, human qualities such as courage and bravery are mentioned together. It is no coincidence that this industry, which has been described as "hard bread", has given rise to the Jadid movement in Uzbekistan. Because at that time, intellectuals relied primarily on the press to educate the people. In recent years, our country has undergone radical changes in the field of freedom of speech and the press in building a new Uzbekistan. These processes, which are currently in full swing, also serve to increase the constant attitude and responsibility of our people to reforms. At the festive event dedicated to the Day of Press and Mass Media Workers on June 27, the head of our state made a special mention of this issue. This is confirmed by the fact that over the past three years, more than a dozen pieces of legislation have been adopted in this regard. It is worth noting that the shortcomings are being brought to the attention of government agencies and the public. "Indeed, this date is widely celebrated in our country. A number of events were organized in our region on the occasion of this holiday, and the work of a group of volunteers active in the field was encouraged. Senator Kabul Tursunov congratulated the editorial staff on the occasion of the holiday. 'said their mothers should be put in order. During the conversation, journalists also made a number of suggestions. After that, 20 artists were awarded certificates of honor of the governor and valuable gifts. "The responsibility of a journalist has always been greater," said Temur Eshboyev, a regional correspondent for the Khalk Sozi newspaper. - Because we are currently living in an era of rapid reforms. In addition to analyzing the effectiveness of these changes, editorial staff should be well-versed in communicating the content of the reforms to the public in a formal, simple and straightforward manner. A journalist should avoid false praise and flattery. Only then will his work be appreciated by the people.

It should be noted that the field of journalism has been established in Navoi region for more than 90 years. Karmana ovozi and Khatirchi Hayoti are the oldest newspapers in the oasis. This year marks the 85th anniversary of a number of newspapers - "Kyzyltepa Tongi" and "Nurnoma", the 90th anniversary of "Kenimex tany" and the 25th anniversary of "Konchilar Hayoti". In addition, Rahim Maksudov, editor of the Kyzyltepa Tongi newspaper, and Ural Sanakulov, executive secretary of the Navoi Ziyosi newspaper, are 80 years old. In this regard, on the eve of the holiday, the regional branch of the Creative Union of Journalists of Uzbekistan visited the editorial offices and awarded the creative teams and veterans with certificates of honor and incentive awards of the chairman of the association Sadulla Hakimov.

This year, a number of governmental and non-governmental organizations have taken the initiative to organize the professional holiday in high spirits. In particular, the regional departments of the Ministry of Justice, the State Service Agency, the regional council of the Democratic Party "Milliy Tiklanish", the joint-stock company "Navoi Territorial Electric Networks" and the company "Zarafshan golden group" did not neglect the activities of journalists.

The development of journalism is important for the development of any country, - said the founder of the Zarafshan Golden Group, Senator Ulugbek Fayziev. "Today, the role of journalists



in highlighting the shortcomings on the ground and assessing the performance of responsible leaders is well known.” A free press also plays an important role in tackling corruption and bribery. First of all, the development of this industry depends, first of all, on the devotees working in this system. Therefore, we should always appreciate their hard work.

The republican contest “The most active journalist of the year” was held on the occasion of the holiday, and about 10 artists from our region took part in it. Admittedly, the correspondent of the newspaper “Kyzyltepa Tongi” Bahodir Egamov became one of the winners of the competition for the analytical coverage of the life of the district in the newspaper.

List of references

1. Nisbet, Matthew C. (March–April 2009). “Communicating Climate Change: Why Frames Matter for Public Engagement”. Environment Magazine. Heldref Publications. Taylor & Francis Group. Archived from the original on 3 July 2018. Retrieved 9 March 2019.
2. Nisbet, Matthew C. (March 2013). “Nature’s Prophet: Bill McKibben as Journalist, Public Intellectual and Activist” (PDF). Discussion Paper Series #D-78. Joan Shorenstein Center on the Press, Politics and Public Policy, School of Communication and the Center for Social Media American University. p. 7. Retrieved 8 March 2013.
3. Talton, Jon (31 January 2018). “Occupational outlook: Where the big bucks are — and aren’t”. The Seattle Times. Retrieved 1 February 2018.
4. Thomas Hanitzsch, et al. eds. Worlds of Journalism: Journalistic Cultures around the Globe (2019) pp. 73–74. see excerpt
5. “1337 Journalists Killed”. Committee to Protect Journalists. Retrieved 28 August 2012.
6. “Number of Jailed Journalists Nearly Doubles in Turkey”. Los Angeles Times. 5 April 2012. Retrieved 6 April 2012.
7. “Iran, China drive prison tally to 14-year high”. Committee to Protect Journalists. 8 December 2010. Retrieved 18 November 2011.



OAV – DAVLAT VA JAMIYAT O’RTASIDAGI MUVOZANATNI SAQLASH VOSITASI

Yoqubboyeva Shoxista To'raxon qizi

Andijon davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) fakulteti II bosqich talabasi

Telefon: +998 99 406 03 12

shoxistayoqubboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda jurnalistika sohasi va OAV davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash vositasiga aylangan. Barcha fuqarolar uchun erkin fikr bildirish huquqi berilgan bo'lib, fuqarolar o'z taklif g'oyalarini jurnalistlarga bermoqdalar va jurnalistlarham fuqarolar bilan har sohada erkin fikr almashmoqda. Bu esa O'zbekistonda demokratik jamiyat qaror topganidan va rivojlangandan darak beradi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, demokratlashtirish, fikr va so'z erkinligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat.

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, ushbu sohani liberallashtirish O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim ustuvor yo'naliishi sifatida belgilandi. O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim ustuvor yo'naliishi sifatida belgilandi. 1991-yili O'zbekistonda 395 ta OAV faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun ularning soni 1437 taga yetdi. Ayni vaqtida mavjud nodavlat bosma OAV jami bosma OAV ning 62,7 foizini tashkil etmoqda. 1990-yilda 9 ta nashriyot bor edi, bugun ularning umumiyy soni 112 tadan ortiq hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolar erkinligini ta'minlashning muhim shartidir. Demokratik islohotlarni hayotga tatbiq etish, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati katta. Ommaviy axborot vositalari (OAV) keng ommaga axborot yetkazuvchi vositalardir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazeta, jurnal, axborotnoma va boshqalar), elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxranik dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar), olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari OAV deb ko'rsatilgan.

O'zbekistonda siyosiy hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, bog'lab turuvchi, ular orasidagi shaffoflikni ta'minlab beruvchi birdan bir vosita ham ommaviy axborot vositalaridir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, unga to'rtinchı hokimiyat darajasida e'tibor berilgani bejiz emas, albatta. Hozirgi kunda OAV nafaqat jamiyatni axborotdan xabardor qilish vositasi sifatida, balki jamiyat manfaatlari nuqtayi nazaridan davlat faoliyatini nazorat qilish vositasida bir qator vazifalarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi barcha qonunlarda axborot olish, tarqatish borasidagi demokratik huquqlar aniq-ravshan bayon etib borilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida "Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega" deyilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" gi Qonunning 3-moddasida ham "Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborot izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi" deyiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, demokratik jarayonlar ancha chuqurlashgan, bunga mos matbuotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda so'z va fikr erkinligi asta-sekin o'z oqimi bilan kirib kelgan. Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hurfikrlilikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqeа bo'ldi. Ayni paytda u axborot sohasini jahon andozalariga moslashtirish, fuqarolarni erkin fikrashga o'rgatish va shu asosda jamiyatni sog'lom fikrlar asosida qaytadan qurish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini



boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi hozirgi holat tahlili media makonda yuzaga kelayotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan munosib javob qaytarilmayotganini ko'rsatib, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan miqyosdagi islohotlar to'g'risidagi keng qamrovli ma'umotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha jamiyat ehtiyojlari axborot sohasidagi ishlarni sezilarli darajada oshirishni, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 27-iyun kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qator vazifalarni belgilab berdi:

1. 2019-yil 1-oktabrdan e'tiboran shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq bolalar adabiyotlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan mahsulotlar chop etishga ixtisoslashgan nashriyotlar noshirlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya bergenlik uchun davlat boji to'lashdan ozod qilinadi.

2. Quyidagilar davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, matbuot markazlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha xizmatlari (keyingi o'rnlarda – axborot xizmatlari)ning asosiy vazifalari etib belgilansin:

-davlat organlari va tashkilotlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

-davlat organlari va tashkilotllarining ijobji imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

-ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjalalar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

-muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining chiqishlarini tashkil etish.

Davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxona, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzura qilganlik, jurnalistning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, jurnalistning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik, uning so'rov va axborot olish huquqini buzganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik va faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikka tortiladilar.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida boshlangan bu keng miqyosdagi islohotlarni jamiyatning eng ichki qatlamlarigacha olib kirish albatta mamlakat aholisining ijtimoiy ongini va savyasini, hayotga bo'lgan qarashlarini tubdan o'zgartirishni talab etardi. Shubhasiz, bu mashaqqatli jarayonda ommaviy axborot vositalari eng muhim o'rnlardan birini egallaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ-4366-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4151 qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



ABDULLA QAHHORNING MA'RIFATPARVARLIK QARASHLARI.

Palvanova Zevarjon Baltabayevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 92- son

AFChO` va ChTChO`ning ona tili va
adabiyot fani o`qituvchisi.Tel:914337727

Palvanova Mehriban Baltabayevna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 3-son

AFChO`IMI ning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi.
Tel: 995417481

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli o`zbek adibi A.Qahhorning ayrim hikoyalarida ma'rifatparvarlik qarashlarining aks etishi ayrim timsollar orqali aks ettirilganligi misollar yordamida yoritib berilgan. Ma'rifatparvar adib zulmatda qolmaslik uchun ilm o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Ko'pchilik asarlarida shu mavzuga murojaat qilar ekan, kitobxon ilmning foydasi, nodonlikning inson uchun qusur ekanligini anglab yetishiga erishadi.

Kalit so'zlar: hikoya, janr, ma'rifat, ilm, iste'dod, kelgindi, zahmatkash, bilimdonlik va nodonlik, alloma, ma'rifatparvarlik qarashlari, roman, qissa, rus adabiyoti namoyandalari.

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandas, yorqin iste'dod sohibi, haqgo'ylik va ma'rifat kuchisi A.Qahhor barchaga maktab bo'lguilik ibratli hayot yo'lini bosib o'tdi. Odatda, bunday insonlar hayotga yuz yilda bir marta keladi, deb gapirishadi, yaxshilik urug'ini sochib, o'zidan keyin ulkan bir bog' yaratib ketgan insonlar haqida. Ha, A.Qahhor ana shunday tengi yo'q zahmatkash ijodkor edi.

Ko'chmanchilik, „kelgindi” deb kamsitishlar, turmush mashaqqatlari yosh Abdullani juda erta ulg'aytirdi. U yaxshi va yomonni farqlashni, oqni qoradan ajratishni tengdoshlariga qaraganda ancha oldin o'rgandi. Hayot o'zi dono muallimdir. Ilk savodini otasi qo'lida chiqargan bolakay otasi usta Abduqahhor o'zi ta'mirlagan ketmonlarga dehqonlarning ismini yozib qo'yganidan, ketmon egalarining bunga qoyil qolganidan xursand bo'ladi, otasidan faxrlanadi. Bilimli kishining xalq e'tiborida bo'lismeni bolalik shuuri bilan his qiladi va o'zi ham qunt bilan bilim olishga kirishadi. Biz ilm ummonidan qatralar terishdan tolmagan adib asarlarini haqiqiy dur, javohirlarga qiyos etsak arziydi. Izlanuvchan adib ilm samarasiga erishganini uning asarlaridan ham bilishimiz mumkin.

O'z bilimi tufayli hayoti va ijodida ulkan yutuqlarga erishgan adib ilm oftob misol hayot yo'llarini yoritishini, zulmatda qolmaslik uchun ilm o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Ko'pchilik asarlarida shu mavzuga murojaat qilar ekan, kitobxon ilmning foydasi, nodonlikning inson uchun qusur ekanligini anglab yetishiga erishadi. Asarlaridagi turli-tuman qahramonlarning taqdiri o'quvchini befarq qoldirmaydi, jiddiy o'ylanishga majbur etadi. Arastu, Farobi, Ibn Sino kabi buyuk allomalar umri so'ngida hech nimani bilmasligiga kamtarlik bilan iqror bo'lgani tarixdan ma'lum. Ular ilmning cheksizligi, o'rganishdan to'xtamaslik lozimligini ana shu hikmatlariga joylaganlar.

Darhaqiqat, bilimdonlik davr talabiga aylanib boryapti.Ozgina sustkashlik qilish kishini zamondan orqada qolishga olib keladi. Ilgari savodsizlikka illat sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda bilimsiz kishilar hayot oqimidan chetda qolib ketayotganini ko'rishimiz mumkin.

Keling, A.Qahhorning ma'rifatparvarlik qarashlariga e'tibor qilsak.Uning bilimdonlik va nodonlik olami vakillari bo'l mish qahramonlariga nazar tashlasak...

„Adabiyot muallimi” hikoyasidagi o'zining e'tiroficha „Nafis adabiyot muallimi” Boqijon Baqoyev bilimsizligini tan olmay, o'zini bilimdon ko'rsatishga tirishadi. U xotinining singlisi Hamidaning Chexov haqidagi savoliga javob berishga ojizlik qilgach, gapni boshqa tomonga burishga harakat qiladi. Chexovni Pushkin, Lermontovlar bilan bir davrda yashagan deb aytishi, savol alomati hamma vaqt „mi” dan keyin qo'yiladi degan fikrlari, hattoki qulog'idagi kanani terishga qo'yмаган sigirdan o'pkalashi ham uning naqadar nodon va buni tan olmaydigan kishi ekanligini ko'rsatadi. U hatto o'quvchi qizchalik ham bilimga ega emas. O'ziga umid ko'zi bilan qaragan Hamidaga Chexovning „Uyqu istagi” hikoyasi to'g'risida hech qanday fikr bera olmaydi.

Yozuvchining „O'jar” hikoyasi qahramonlari ham savodsiz, nodon ekanliklariga qaramay,



o'zlarini bilimdon qilib ko'rsatishadi, lekin ularning bilimsiz, omiligini hatto yosh bola-Suyar ham fosh qila oladi, ya'ni Saltikov-Shchedrinning aslida bir kishi ekanligini isbotlaydi.

„San'atkor” hikoyasi qahramoni xizmatchisini savod maktabiga qatnatgani, o'zini „kulturniy” hisoblagani holda bir traktorchi savodsizlikda ayblab tanqid qilganiga chidayolmay, „Labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab” deb kuylaganida traktorchi „bo'lsa” emas, „bo'sa” bo'ladi” deganda unga „Senga o'xshagan savodsizlar „bo'sa bo'masa” deydi, artist kulturniy odam-gapni adabiy qilib aytadi-, „bo'lsa, bo'lmasa” deydi” deb javob qaytarishi bilan o'zining bilimsizligini namoyon qiladi.

„So'nggi nuxxalar” („Tobutdan tovush”) dramasida Suxsurovlar xonadonidagi asrandi qiz Hojarning Netayxonning o'gay ukasi Obidjon bilan uchrashuviga e'tibor qilaylik. Obidjon Hojarni uchratganidan oq uning ma'lumotiga qiziqadi. Chunki, Hojarning o'zini tutishi, muomalasi, fikrashi Obidjonnini hayratlantiradi. U Hojarga ilm afzalligini tushuntirib, to'g'riyo'lga boshlaydi.

„Og'riq tishlar” dramasidagi Marasul o'quvchi qiz Nasibani yo'ldan urib, qop-qop va'dalar berib uylanib oladi va uni uy cho'risiga aylantiradi. Nasiba o'qishidan uzilib qolgani tufayli ayanchli holga tushib qoladi. Nihoyat, u domlalari, sinfdoshlari, ayniqsa, mакtab qorovuli Zuhra xolasi yordamida o'z yo'llini topib oladi. Asardagi qorovul Zuhra xola o'qib, o'z bilimini oshirib, ilg'or jamoatchi, rahbar sifatida yuksalishi ham diqqatga sazovordir.

Rang-barang janrlarda qalam tebratgan adib deyarli barcha asarlarida insonning yuksak ma'rifat egasi bo'lishi lozimligiga urg'u beradi. Kitobxonni asar qahramonlari taqdiridan tegishli xulosa chiqarib olishga, bilmning foydasi va nodonlikning zarari to'g'risida jiddiy o'ylanishga majbur etadi. Kitobxon kelajakni ko'zlab zavq-shavq bilan oldinga intilishda davom etadi. Adib,,Yaxshi yozolmaganligingni kechirish mumkin, lekin yaxshi yozishni istamaganiningni kechirish mumkin emas” degan hikmati bilan bizga „Bilmaganiningni kechirish mumkin, lekin bilishni istamaganiningni kechirish mumkin emas” deyotgandek bo'ladi.

A.Qahhor asarlarini qayta-qayta o'qish lozim. Yozuvchi rus adabiyotining zabardast siymolaridan biri - Lev Nikolayevich Tolstoy haqida shunday degan edi: „Tolstoy boboning asarları qaziga o'xshaydi. Chaynagan sayin mazasi chiqaveradi”.

Adib asarları haqida ham aynan shu fikrlarni aytish mumkin. A.Qahhor asarları yillar o'tsa-da ma'rifat saboqlari sifatida kitobxonlarni o'ziga maftun qilishi, shubhasiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida.T.: G`G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987.
2. Men dardimni kimga aytaman? Kibriyo Qahhorova bilan suhbat.”Sharq yulduzi” jurnali,1989-yil,12-son.
3. Abdulla Qahhor adabiyot va hayot haqida.Ziyouz.com kutubxonasi.
4. Umarali Normatov.Abdulla Qahhor haqida xotiralar.www.kh-davron.uz.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(6-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000